| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati .....                               | 479 |
| <i>Sodiqova Gulbahor G'ofurjon qizi, Abduvohidova Rayhona Nuriddin qizi</i>                                                     |     |
| 6–7 yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda mantiqiy fikrlashga o'rgatishning ahamiyati .....                          | 484 |
| <i>Sultonova Sitara Zarif qizi</i>                                                                                              |     |
| Debat texnologiyalari va akademik yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish.....                                                      | 488 |
| <i>Gulamov Shavkat Maxmudovich</i>                                                                                              |     |
| Kognitiv yuk nazariyasi asosida boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'quv jarayonini optimallashtirish .....                     | 492 |
| <i>G'ulomova Moxinur Inomjon qizi</i>                                                                                           |     |
| Muloqot madaniyati va liderlik ko'nikmalarining shakllanishidagi psixologik-pedagogik omillar .....                             | 497 |
| <i>Putatova Odinaxon Xamidovna</i>                                                                                              |     |
| Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish pedagogik muammo sifatida .....                                                               | 501 |
| <i>Qulmatova Xurshida Abdurahmonovna</i>                                                                                        |     |
| O'quvchilarga algebrani o'qitishning dolzarb masalalari.....                                                                    | 504 |
| <i>Qodirova B., Ibragimov N.</i>                                                                                                |     |
| Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish masalalari .....                              | 509 |
| <i>Axmadjanova Moxiyat Sadriyevna</i>                                                                                           |     |
| Bo'lajak tarbiyachilarning elektron ta'lim resurslari va innovatsion dasturlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish..... | 513 |
| <i>Sultansaidova Mushtariy Abzalxanovna</i>                                                                                     |     |
| Jo'rg' Oruell asarlarida davr va shaxs fojiasi .....                                                                            | 516 |
| <i>Xatamova Kumush Javxar qizi</i>                                                                                              |     |
| “Tabiiy fanlar” fanini o'qitish texnologiyasini STEAM yondashuvi asosida tuzish metodikasi .....                                | 519 |
| <i>Imankulov Nurbek Tursunkul o'g'li, Ashirov Shamshidin Annazarovich</i>                                                       |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyatiga samarali ta'sir etuvchi irodaviy sifatlar .....                              | 525 |
| <i>Ma'rufjonova Rohila Lutfulla qizi</i>                                                                                        |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida texnik ijodkorlikni shakllantirishning mazmuni va metodikasi ....                   | 528 |
| <i>Xudaykulova Saida Zakirovna</i>                                                                                              |     |
| Aqli zaiflik va autizm spektri buzilishining klinik-pedagogik farqlari .....                                                    | 533 |
| <i>Zakirova Fozilaxon Zafarjon qizi</i>                                                                                         |     |
| STEAM yondashuvi asosida kreativ fikrlashni shakllantirishning didaktik imkoniyatlari.....                                      | 538 |
| <i>Erkinov Ozodbek Faxriddin o'g'li</i>                                                                                         |     |
| Neologizmlar – badiiy matnda uslubiy vosita sifatida .....                                                                      | 540 |
| <i>Ibragimova Shoira Normuminovna</i>                                                                                           |     |
| Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar ota-onalarini logopedik korreksion ishiga jalb etish .....                                   | 543 |
| <i>Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna, Abdullayeva Gulzoda Abdurazzoq qizi</i>                                                   |     |
| Rus tili darslarining samaradorligini oshirishda nutqiy kompetensiyani shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari.....           | 546 |
| <i>Jurayeva Nilufar Shovkat qizi</i>                                                                                            |     |
| Autizm spektridagi bolalarda nutqni rivojlantirish uchun sensor integratsiya usullarining ta'sirini o'rganish.....              | 549 |
| <i>Mo'minova Gulnora Qurvonali qizi</i>                                                                                         |     |
| Yosh taekvondochilarni maxsus mashqlar yordamida kyorugi texnikasini rivojlantirish .....                                       | 552 |
| <i>Sheraliyev Sarvarbek Soxibjon o'g'li</i>                                                                                     |     |
| “Motivatsion yondashuv” hamda “kreativ fikrlash” tushunchalarining mazmun va mohiyati .....                                     | 556 |
| <i>Toshnazarova Mohinur O'sarali qizi</i>                                                                                       |     |
| Bo'lajak tarbiyachilarning muloqot madaniyatini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning o'rni .....                      | 559 |
| <i>Umarova Feruzabonu Bobir qizi</i>                                                                                            |     |

|                                                                                                                                                                            |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Ta'lim falsafasining ijtimoiy-madaniy evolyutsiyasi .....                                                                                                                  | 562 |
| <b>Uzakova Zahroxon Muhammad Zarif qizi</b>                                                                                                                                |     |
| Fizika ta'limida ijodiy tafakkurni shakllantirishning innovatsion modeli: muammoli ta'lim va interfaol metodlar asosida kompetensiyaviy yondashuv .....                    | 565 |
| <b>Yusupov Kodirjan Batirovich</b>                                                                                                                                         |     |
| Игровые проекты как средство обучения предлогам английского языка.....                                                                                                     | 569 |
| <b>Нуратдинова Наргиза Бахтияровна</b>                                                                                                                                     |     |
| Формирование межкультурной коммуникативной компетенции через изучение речевого этикета в цифровой среде (мессенджеры и социальные сети) .....                              | 572 |
| <b>Юсупова Сохила Сайфиевна</b>                                                                                                                                            |     |
| Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish.....                                                                                          | 575 |
| <b>Shamiyeva Manzura Fayzullayevna</b>                                                                                                                                     |     |
| Pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilar valeologik kompetentligini rivojlantirishning mazmuni va mohiyati .....                                             | 579 |
| <b>Sardorxon Quvondiqov</b>                                                                                                                                                |     |
| Pedagogik ta'lim muassasalari bo'lajak o'qituvchilarida integrativ yondashuv – milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirish yondashuvi sifatida.....                            | 584 |
| <b>Miraxmedov Fatxulla</b>                                                                                                                                                 |     |
| Bolalarni xavfsiz, erkin, o'yinga asoslangan va do'stona muhitda tarbiyalash – muvofiqlashtirishning yangi standartlari.....                                               | 590 |
| <b>Mamadaliyeva Dilfuza Baxtiyorovna</b>                                                                                                                                   |     |
| Alisher Navoiyning "Arba'in" asaridagi qit'alarda sahih hadislarning badiiy talqini .....                                                                                  | 595 |
| <b>Nematullayeva Madina Zafarovna</b>                                                                                                                                      |     |
| Umumta'lim maktablarida chizmachilik fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari .....                                                  | 598 |
| <b>Xalimov Moxir Karimovich</b>                                                                                                                                            |     |
| Biologiya fanini o'qitishni modernizatsiyalash bo'yicha zamonaviy yondashuvlar.....                                                                                        | 603 |
| <b>Axmadjanova Mohiyat Sadriyevna</b>                                                                                                                                      |     |
| Dizariya shakllarining klinik-pedagogik tavsifi .....                                                                                                                      | 607 |
| <b>Iminjonova Moxichexra Alimardon qizi</b>                                                                                                                                |     |
| Oliy ta'limda kechki ta'lim talabalarining o'quv faolligini oshirishda faollashtiruvchi interaktiv ma'ruza metodining didaktik strukturasi va pedagogik imkoniyatlari..... | 611 |
| <b>Axmedova Zilola Muxtor qizi</b>                                                                                                                                         |     |
| Оптимизация процесса самообразования студентов русской филологии в условиях современного образовательного пространства .....                                               | 617 |
| <b>Азизова Д. А.</b>                                                                                                                                                       |     |
| Bo'lajak tarixchilarda tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirishning amaliy texnologik tizimi.....                                     | 622 |
| <b>Anvarjonov Ahrorjon Ahadjon o'g'li</b>                                                                                                                                  |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnatsevarlikka tarbiyalashda pedagogik texnologiyalarning turlari va ularni qo'llash imkoniyatlari.....                                 | 625 |
| <b>Xudaybergenova Adolat Usmanovna</b>                                                                                                                                     |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy-axloqiy tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning hamkorligi.....                                                    | 629 |
| <b>Jumanova Fotima Uralovna, Azimova Zebxon Tohirovna</b>                                                                                                                  |     |
| 4K yondashuvi asosida dars topshiriqlarini ishlab chiqish.....                                                                                                             | 635 |
| <b>Boboyeva Nafosat Tulqin qizi</b>                                                                                                                                        |     |
| O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik diagnostika.....                                                                                                                        | 639 |
| <b>Xolmatova Ziroatxon Anvarovna</b>                                                                                                                                       |     |
| Raqamli ta'lim muhitida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati.....                                                                                    | 642 |
| <b>Abdullayeva Ozoda Odiljon qizi</b>                                                                                                                                      |     |
| O'yinchilarning texnik va taktik tayyorgarligi.....                                                                                                                        | 645 |
| <b>Madaminov Oribdjan Nishanbayevich</b>                                                                                                                                   |     |



|                                                                                                                                          |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Ta'lim jarayonida gamifikatsiya va didaktik o'yinlar orqali metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....                | 648 |
| <i>Xayrullina Parizod Farg'at qizi</i>                                                                                                   |     |
| Dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini baholash mezonlari va monitoring tizimi.....   | 651 |
| <i>Umurov Zarif Latifboyevich</i>                                                                                                        |     |
| Boshlang'ich sinflarda folklor asarlarini aksiologik yondashuv asosida o'qitish metodikasi .....                                         | 660 |
| <i>Aytmuratova Elvira Ersultanovna</i>                                                                                                   |     |
| Boshlang'ich sinf o'qituvchilari tanqidiy fikrlashining psixologik va pedagogik mohiyati.....                                            | 663 |
| <i>Haydarova Kamola Ergashboy qizi</i>                                                                                                   |     |
| Differensial ta'limning nazariy-konseptual asoslari.....                                                                                 | 667 |
| <i>Rasulova Nozigul Abdivoxid qizi</i>                                                                                                   |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatga o'rgatishda kreativ shaxsni shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalar .....      | 671 |
| <i>Rizoyeva Muslima Raxmonovna</i>                                                                                                       |     |
| Информационная компетентность через призму филологии: ключевые факторы формирования ...                                                  | 679 |
| <i>Хикматов Нодир Назимджанович</i>                                                                                                      |     |
| Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida qadriyatlar tizimini shakllantirishning samarali yo'llari .....                            | 683 |
| <i>Mamatova Zarena Abduljalilovna</i>                                                                                                    |     |
| O'zbekiston va Angliyada pedagogik ta'lim tizimining tarixiy asoslari.....                                                               | 686 |
| <i>Miramatova Laylo Ravshanjon qizi</i>                                                                                                  |     |
| Innovatsion ta'lim muhitida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....                | 690 |
| <i>Nilufar Xalikova Mirkadirovna</i>                                                                                                     |     |
| Badmintonchilarda maxsus chaqqonlik tayyorgarligining o'yin faoliyatiga ta'siri .....                                                    | 694 |
| <i>Samadova Uktabar Hasanovna</i>                                                                                                        |     |
| <i>Maktab direktorlarining boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishda sinergetik</i>                                                      |     |
| yondashuvning o'рни va ahamiyati .....                                                                                                   | 698 |
| <i>Yusupova Dilnoza Fayzullayevna</i>                                                                                                    |     |
| Pedagogical Essence of Improving Students' Collaborative Skills Through Multi-Vector Approaches .....                                    | 702 |
| <i>Turemuratova Aziza Begibaevna, Otelbayeva Muhayyo Alisher qizi</i>                                                                    |     |
| Tasviriy san'at mashg'ulotlarining maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv, estetik va ijodiy rivojlanishiga ta'siri .....               | 708 |
| <i>Shaymuradov Taxir Zamanovich</i>                                                                                                      |     |
| Oliy ta'limda ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalarni baholash mezonlari: falsafa fanining o'quv jarayoniga integratsiyasi .....             | 713 |
| <i>Abdullayev Akmal Nasriddinovich</i>                                                                                                   |     |
| Klasterli ta'lim muhitida bo'lajak o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodlari..... | 717 |
| <i>Abdurahmonov Maqsad Bekjonovich</i>                                                                                                   |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanishning yetakchi omillari.....                                                             | 720 |
| <i>Abduvosiyeva Mahmuda Xamidullo qizi</i>                                                                                               |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ sifatlarini oshirish: zamonaviy yechimlar va muammolar .....                       | 724 |
| <i>Abdusalimova Yulduz Normurod qizi</i>                                                                                                 |     |
| Maktablarda sun'iy intellekt asosida xorijiy tillarni o'qitish afzalliklari .....                                                        | 728 |
| <i>Altimisheva Iroda Mavlonovna</i>                                                                                                      |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....                               | 731 |
| <i>Ashurov Yusuf Alisher o'g'li</i>                                                                                                      |     |
| Bolalikni qayta anglash: mariya montessori pedagogik qarashlarining ilmiy asoslari .....                                                 | 735 |
| <i>Ismatullayeva Madinabonu Akmaljon qizi</i>                                                                                            |     |
| 14-15 yoshli o'quvchilarning jismoniy tarbiya vositalari orqali jismoniy tayyorgarligi samaradorligini oshirish metodi .....             | 740 |
| <i>Karimboyev Og'abek Qadamboyevich</i>                                                                                                  |     |

|                                                                                                                                                                     |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| O'zbekiston xalqlarining amaliy san'ati va ma'naviy merosini o'rganish: tarixiy va pedagogik jihatlar .....                                                         | 744 |
| <b>Kayumov Erkin Kazakbayevich</b>                                                                                                                                  |     |
| Fizika ta'limida kognitiv texnologiyalar asosida talabalarning mantiqiy va analitik tafakkurini rivojlantirish yo'llari .....                                       | 748 |
| <b>Madumarov Shodonbek Az'amjonovich</b>                                                                                                                            |     |
| Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonlarida pedagogik-psixologik bilimlarning ahamiyati .....                                                          | 751 |
| <b>Muratova Shaxnoza Ibatovna</b>                                                                                                                                   |     |
| Yoshlar o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlashda pedagogik resurslar va hamkorlik infratuzilmasining ahamiyati .....                                          | 754 |
| <b>Matnazarov O'ktam Latipovich</b>                                                                                                                                 |     |
| Maxsus pedagogika o'qituvchilarining pedagogik va psixologik tayyorgarlik darajasi .....                                                                            | 757 |
| <b>Oxunov Ilxomjon Abdunabiyeich</b>                                                                                                                                |     |
| Funksional bog'liqlikni tushunishda vizual-eksperimental metodning samaradorligi .....                                                                              | 760 |
| <b>Qobilova Nargiza Anvarovna, Shamuratov Zafar Ergashevich</b>                                                                                                     |     |
| The Psychological Importance of Emotional Intelligence and Stress Resilience in Increasing Professional Efficiency of Primary School Pedagogues .....               | 766 |
| <b>Tajiboyeva Odinakhon</b>                                                                                                                                         |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlar jarayoni sifatini monitoring qilish vositasi sifatida .....                                                           | 769 |
| <b>Tashbayev Naim Sadikovich</b>                                                                                                                                    |     |
| Axloqiy tafakkur va axloqiy qaror qabul qilish kompetensiyasi tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati .....                                                   | 773 |
| <b>Temirova Oydina Muhiddinova</b>                                                                                                                                  |     |
| Oliy ta'lim muassasalarida "Muhandislik kompyuter grafikasi" fanini o'qitishning metodik asoslari va zamonaviy yondashuvlari .....                                  | 776 |
| <b>Xamidov Dilshod Olimjon o'g'li</b>                                                                                                                               |     |
| Kasbiy ta'lim rahbarlarining individual yondashuv asosida kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari ...                                                          | 780 |
| <b>Yangiboyev Kamol Norboyevich</b>                                                                                                                                 |     |
| Тема экологических проблем как элемент духовно-нравственного воспитания студентов в произведениях Чингиза Айтматова .....                                           | 784 |
| <b>Абдулвохидов Элёр</b>                                                                                                                                            |     |
| Девиантное поведение школьников в образовательной среде: проблемы классификации и гендерные особенности восприятия педагогами .....                                 | 789 |
| <b>Алимжанова Матлюба Юнусовна</b>                                                                                                                                  |     |
| Анализ проблем развития профессиональной иноязычной компетенции по английскому языку у студентов медицинских вузов .....                                            | 793 |
| <b>Исраилова Илона Халитовна</b>                                                                                                                                    |     |
| Психолого-педагогические условия использования изобразительной деятельности как средства стимуляции коммуникативных навыков у воспитанников с синдромом дауна ..... | 798 |
| <b>Каримова Регина Шовкатовна</b>                                                                                                                                   |     |
| Методика развития специальной физической подготовленности футболистов 11–12 лет с использованием современного инновационного оборудования .....                     | 802 |
| <b>Мирзабаев Диёрбек Камилович</b>                                                                                                                                  |     |
| Нейроигра как эффективное средство развития познавательных и регуляторных функций у детей дошкольного возраста .....                                                | 805 |
| <b>Намазбаева Лола Закировна, Маткаримова Шарира Рахимжановна</b>                                                                                                   |     |
| Методы и приёмы технологии развития критического мышления в курсе "Общая педагогика": опыт проектирования учебного процесса в вузе .....                            | 809 |
| <b>Янкина Рано Садыковна</b>                                                                                                                                        |     |



# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQIY RIVOJLANISHNING YETAKCHI OMILLARI

Abduvosiyeva Mahmuda Xamidullo qizi

Toshkent shahridagi A. I. Gersen nomidagi  
Rossiya davlat pedagogika universiteti filiali  
1-bosqich tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanish jarayoniga ta'sir etuvchi yetakchi omillar ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, biologik, psixologik, ijtimoiy hamda pedagogik omillarning bola nutqining shakllanishi va takomillashuvidagi o'rni asoslab beriladi. Oila muhiti, muloqot sifati, tarbiyaviy yondashuv, tengdoshlar bilan o'zaro aloqalar hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yaratilgan nutqiy muhitning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, nutqiy rivojlanishda individual xususiyatlar, motivatsiya va faoliyatning yetakchi turi sifatida o'yin jarayonining roli ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni samarali rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha yosh, nutqiy rivojlanish, nutq faoliyati, nutq muhiti, ijtimoiy omillar, pedagogik ta'sir, oila tarbiyasi, muloqot, o'yin faoliyati, psixik rivojlanish, kommunikativ kompetensiya.

**Abstract:** This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the leading factors influencing speech development in preschool children. The role of biological, psychological, social, and pedagogical factors in the formation and improvement of a child's speech is substantiated. The importance of the family environment, quality of communication, educational approaches, peer interaction, and the speech environment created in preschool educational institutions is highlighted. In addition, individual characteristics, motivation, and the role of play as the leading type of activity in speech development are examined. The research findings may serve as a theoretical basis for developing methodological recommendations aimed at the effective development of speech in preschool children.

**Key words:** preschool age, speech development, speech activity, speech environment, social factors, pedagogical influence, family upbringing, communication, play activity, mental development, communicative competence.

**Аннотация:** В данной статье проводится научно-теоретический и практический анализ ведущих факторов, влияющих на речевое развитие детей дошкольного возраста. Обосновывается роль биологических, психологических, социальных и педагогических факторов в формировании и совершенствовании речи ребёнка. Освещается значение семейной среды, качества общения, воспитательных подходов, взаимодействия со сверстниками, а также речевой среды, созданной в дошкольных образовательных организациях. Кроме того, рассматриваются индивидуальные особенности, мотивация и роль игровой деятельности как ведущего вида деятельности в речевом развитии. Результаты исследования могут служить теоретической основой для разработки методических рекомендаций по эффективному развитию речи у детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** дошкольный возраст, речевое развитие, речевая деятельность, речевая среда, социальные факторы, педагогическое воздействие, семейное воспитание, общение, игровая деятельность, психическое развитие, коммуникативная компетенция.

## KIRISH

Maktabgacha yosh davri inson ontogenezining eng muhim va sezgir bosqichlaridan biri bo'lib, aynan shu davrda nutqiy faoliyatning asosiy komponentlari shakllanadi. Nutq bolaning nafaqat muloqot vositasi, balki tafakkurini rivojlantiruvchi, ijtimoiy tajribani o'zlashtirishni ta'minlovchi hamda shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiluvchi yetakchi psixik funksiyadir. Nutqiy rivojlanish darajasi bolaning maktab ta'limiga tayyorgarligi, o'qish-yozish ko'nikmalarini egallashi, ijtimoiy muhitga moslashuvi va intellektual salohiyatining namoyon bo'lishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining erta yoshdan boshlab keng qo'llanilishi, oilaviy tarbiya modelining transformatsiyasi hamda ko'p tillilik muhitining kengayishi maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy rivojlanishiga yangi omillar ta'sirini yuzaga keltirmoqda. Mazkur sharoitda nutqiy rivojlanishning



yetakchi omillarini qayta ko'rib chiqish, ularning o'zaro bog'liqligi va ta'sir mexanizmlarini aniqlash ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavjud ilmiy tadqiqotlarda nutqiy rivojlanish biologik, psixologik, ijtimoiy va pedagogik omillar ta'sirida kechishi ta'kidlangan bo'lsa-da, ularning integrativ tizimi va ustuvorlik darajasi yetarli darajada kompleks yondashuv asosida o'rganilmagan. Xususan, milliy-madaniy muhit, oilaviy kommunikatsiya sifati, pedagogik ta'sir mazmuni hamda raqamli axborot vositalarining nutqiy rivojlanishga ta'siri o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi alohida ilmiy tahlilni talab etadi. Shu bilan birga, nutqiy rivojlanishdagi ehtimoliy kechikishlarni erta aniqlash va profilaktika qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati ham mavjud. Amaliyotda ko'plab maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutqni rivojlantirish ishlari olib borilayotgan bo'lsa-da, omillarning ustuvor yo'nalishlari, ularning samaradorligini belgilovchi shart-sharoitlar hamda oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligining ilmiy asoslangan modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu esa nutqiy rivojlanish jarayonini boshqarishda tizimlilik va izchillikni ta'minlashda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanishning yetakchi omillarini aniqlash, ularni tizimlashtirish hamda o'zaro ta'sir mexanizmlarini ilmiy asoslash mazkur tadqiqotning maqsadini belgilaydi. Tadqiqot natijalari nutqiy rivojlanish omillarining integrativ modelini ishlab chiqish, ularning ustuvorlik darajasini aniqlash hamda maktabgacha ta'lim amaliyoti uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi nutqiy rivojlanish omillarini zamonaviy ijtimoiy-pedagogik sharoitda kompleks yondashuv asosida tahlil qilish, ularning o'zaro bog'liqlik tizimini aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tizimida nutqni rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etishga, bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasini oshirishga hamda nutqiy kamchiliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy rivojlanishi muammosi pedagogika, rivojlanish psixologiyasi va logopediya fanlari kesishgan nuqtada o'rganilib kelinmoqda. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, nutq rivojlanishi biologik yetilish, kognitiv taraqqiyot, ijtimoiy muhit va maqsadli pedagogik ta'sirning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida shakllanadi. Turli ilmiy maktablar mazkur jarayonni turlicha talqin qilgan bo'lsa-da, ularning barchasi nutqni shaxs rivojlanishining markaziy ko'rsatkichi sifatida e'tirof etadi. Nutq rivojlanishini tushuntiruvchi yetakchi konseptual yondashuvlardan biri – ijtimoiy-madaniy nazariyadir. Ushbu yondashuvga ko'ra, bola nutqi ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanadi va kattalar bilan hamkorlik faoliyati orqali rivojlanadi. "Yaqin rivojlanish zonasini" tushunchasi nutqiy kompetensiyaning bosqichma-bosqich egallanishini izohlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur nazariyada til nafaqat muloqot vositasi, balki tafakkurni tashkil etuvchi psixik mexanizm sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan ijtimoiy muhit sifati, nutqiy muloqot intensivligi va pedagogik qo'llab-quvvatlash darajasi yetakchi omil sifatida baholanadi.

Kognitiv rivojlanish nazariyasida esa nutq bolaning aqliy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda ko'riladi. Ushbu yondashuvga muvofiq, bola tafakkurining bosqichma-bosqich murakkablashuvi til birliklarining o'zlashtirilishiga zamin yaratadi. Nutq rivojlanishi predmetli faoliyat, tajriba va bilish jarayonlari bilan chambarchas bog'lanadi. Bu nazariya nutqni asosan individual kognitiv jarayon mahsuli sifatida talqin qiladi hamda yosh bosqichlariga xos psixologik xususiyatlarni asosiy determinant sifatida ko'rsatadi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda esa nutqiy rivojlanishga ta'sir etuvchi omillarni kompleks ko'rib chiqish tendensiyasi kuchaymoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar, dialogik muloqot, fonematik mashqlar, hikoya tuzish, rolli o'yinlar va interfaol metodlarning samaradorligi empirik jihatdan asoslanmoqda. Ushbu yondashuvlar nutqni rivojlantirishni maqsadli tashkil etilgan pedagogik jarayon sifatida talqin qiladi. Bunda tarbiyachi nutqiy muhitni tashkil etuvchi faol subyekt sifatida e'tirof etiladi.

So'nggi yillardagi tadqiqotlarda nutqiy rivojlanishga oilaviy muhit, ota-onalar bilan muloqot sifati, kitobxonlik an'analari hamda raqamli texnologiyalarning ta'siri ham o'rganilmoqda. Ayrim tadqiqotlar erta yoshda passiv media iste'molining lug'at boyligi va bog'langan nutq shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini qayd etsa, boshqalari nazorat ostidagi interaktiv kontent ma'lum darajada rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Bu esa zamonaviy sharoitda nutqiy rivojlanish omillarini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda bir qator umumiyliklar kuzatiladi. Avvalo, deyarli barcha ilmiy yondashuvlar nutq rivojlanishida ijtimoiy muloqotning hal qiluvchi ahamiyatini e'tirof etadi. Shuningdek, maktabgacha yosh davrining sezgir bosqich ekanligi va pedagogik ta'sirning samaradorligi keng tan olingan. Nutq rivojlanishining ko'p omilli tabiati ham tadqiqotchilar tomonidan qayd etiladi. Shunday qilib, adabiyotlar tahlili nutqiy rivojlanishning ko'p omilli, murakkab va integrativ xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Mavjud nazariyalar muammoning turli jihatlarini yoritgan bo'lsa-da, ularni yagona konseptual model asosida birlashtirish, omillarning ustuvorligini aniqlash hamda zamonaviy ijtimoiy-pedagogik sharoitda qayta tahlil qilish ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola nazariy–tahliliy xarakterga ega bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanishning yetakchi omillarini aniqlash hamda ularni tizimli ravishda umumlashtirishga qaratilgan. Tadqiqot metodologik jihatdan kompleks yondashuv asosida tashkil etildi va pedagogika, rivojlanish psixologiyasi hamda logopediya fanlarining nazariy qoidalariga tayandi. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar, monografiyalari hamda ilmiy maqolalar o'rganildi. Manbalarni tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilindi:

- mavzuga bevosita aloqadorlik;
- ilmiy asoslanganlik va metodologik aniqlik;
- nazariy yondashuvlarning konseptual yaxlitligi;
- zamonaviy tadqiqot natijalarini qamrab olganligi;
- nutqiy rivojlanish omillarini tizimli yoritganligi.

Nazariy tahlil jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

1. **Tahlil va sintez metodi** – nutqiy rivojlanishga doir nazariy qarashlar, konsepsiyalar va ilmiy yondashuvlar alohida komponentlarga ajratilib o'rganildi hamda ularning umumiy jihatlari birlashtirildi.
2. **Qiyosiy-tahliliy metod** – ijtimoiy-madaniy, kognitiv va pedagogik yondashuvlar o'rtasidagi umumiylik va farqlar aniqlanib, ularning metodologik asoslari solishtirildi.
3. **Tizimli yondashuv** – nutqiy rivojlanish biologik, psixologik, ijtimoiy va pedagogik omillar o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritadigan murakkab tizim sifatida talqin qilindi.
4. **Kontent-tahlil metodi** – ilmiy manbalarda uchraydigan asosiy tushunchalar (nutqiy kompetensiya, kommunikativ rivojlanish, ijtimoiy muhit, pedagogik ta'sir, kognitiv omillar va boshqalar) mazmunan tahlil qilinib, ularning semantik chegaralari aniqlashtirildi.

Tadqiqot metodologik jihatdan shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, faoliyat nazariyasi hamda tizimli yondashuv tamoyillariga tayandi. Nutqiy rivojlanish jarayoni shaxsning individual xususiyatlari, ijtimoiy muhit ta'siri va maqsadli pedagogik faoliyat o'zaro birligida tahlil qilindi. Nazariy tahlil jarayonida nutq rivojlanishining ko'p omilli tabiati asosiy metodologik prinsip sifatida qabul qilindi. Shu asosda omillar alohida emas, balki o'zaro ta'sir qiluvchi komponentlar sifatida ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijalarining ishonchiligi turli ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish, qarama-qarshi nazariy yondashuvlarni solishtirish hamda umumlashtirilgan xulosalarni konseptual asoslash orqali ta'minlandi. Nazariy xulosalar mavjud ilmiy qarashlar va zamonaviy tadqiqot natijalari bilan uyg'unlikda shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur nazariy–tahliliy tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanishning yetakchi omillarini aniqlash hamda ularning o'zaro bog'liqlik mexanizmini asoslashga qaratildi. Ilmiy manbalar qiyosiy tahlili natijasida bir qator muhim ilmiy xulosalar shakllantirildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, nutqiy rivojlanish bir omil ta'sirida emas, balki ko'p darajali tizim asosida shakllanadi. Yetakchi omillar quyidagi to'rtta yirik blokka birlashtirildi:

- biologik omillar – nerv tizimi yetilishi, fonematik eshituvning rivojlanganligi, artikulyatsion apparatning holati; kognitiv-psixologik omillar – tafakkur darajasi, xotira, diqqat, motivatsiya va muloqotga ehtiyoj;
- ijtimoiy-madaniy omillar – oilaviy nutqiy muhit, kattalar bilan dialog sifati, kitobxonlik an'analari, til muhiti;
- pedagogik omillar – maktabgacha ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodlar, nutqni rivojlantiruvchi mashg'ulotlar tizimi hamda tarbiyachining nutq madaniyati.

Nazariy tahlil shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yosh davrida ayniqsa ijtimoiy-madaniy va pedagogik omillar yetakchi determinant sifatida namoyon bo'ladi. Biologik omillar zarur shart bo'lsa-da, nutqiy rivojlanishning intensivligi asosan kommunikativ muhit bilan belgilanadi. Tadqiqotda ilgari surilgan asosiy gipoteza – nutqiy rivojlanish ko'p omilli tizim bo'lib, uning samaradorligi omillarning o'zaro uyg'unlashuviga bog'liq – nazariy tahlil asosida tasdiqlandi.

Nazariy manbalarni qiyosiy tahlil qilish jarayonida ayrim qarama-qarshi yondashuvlar ham aniqlandi. Masalan, ayrim tadqiqotlarda raqamli vositalarning ma'lum sharoitda rivojlantiruvchi ahamiyati qayd etilgan bo'lsa, boshqalarida uning salbiy ta'siri ustuvor deb ko'rsatiladi. Kognitiv yondashuv nutqni individual aqliy



rivojlanish mahsuli sifatida talqin qilsa, ijtimoiy-madaniy nazariya uni tashqi muloqot jarayonining natijasi deb hisoblaydi. Mazkur tafovutlar nutqiy rivojlanish murakkab va ko'p qirrali jarayon ekanligini ko'rsatadi hamda uni yagona omil bilan izohlash mumkin emasligini tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanish ko'p omilli va tizimli xarakterga ega ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Nazariy tahlil asosida aniqlangan biologik, kognitiv-psixologik, ijtimoiy-madaniy va pedagogik omillar o'zaro bog'liq holda faoliyat yurituvchi yagona mexanizmni tashkil etishi ilmiy jihatdan asoslandi. Bu esa nutqiy rivojlanishni alohida, izolyatsiyalangan jarayon sifatida emas, balki shaxs rivojlanishining integral komponenti sifatida talqin qilish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari ijtimoiy-madaniy yondashuv vakillari tomonidan ilgari surilgan qarashlar bilan muvofiqlashadi. Xususan, nutqning ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanishi va kattalar bilan hamkorlik faoliyatining yetakchi roli haqidagi g'oya tahlil natijalarida o'z tasdig'ini topdi. Shu bilan birga, kognitiv rivojlanish nazariyasida ilgari surilgan nutq va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ham inkor etilmadi. Aksincha, mazkur tadqiqotda bu ikki yondashuv qarama-qarshi emas, balki o'zaro to'ldiruvchi konseptual asos sifatida talqin qilindi. Raqamli muhitning nutqiy rivojlanishga ta'siri borasidagi qarama-qarshi yondashuvlar ham muhokama qilindi. Ayrim ilmiy ishlarda raqamli vositalarning rivojlantiruvchi imkoniyatlari qayd etilgan bo'lsa, boshqa tadqiqotlarda passiv media iste'molining salbiy ta'siri ta'kidlanadi. Mazkur tadqiqotda ushbu masala shartli xarakterga ega ekani, ya'ni ta'sir darajasi foydalanish mazmuni, davomiyligi va kattalar nazoratiga bog'liq ekanligi asoslandi. Bu esa zamonaviy sharoitda nutqiy rivojlanishni baholashda yangi omillarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari nutqiy rivojlanish muammosini ko'p darajali tizim sifatida talqin qilishga ilmiy asos yaratadi. Taklif etilgan integrativ model turli nazariy yondashuvlarni umumlashtirish orqali nutqiy rivojlanishning konseptual xaritasini shakllantirish imkonini beradi. Bu model kelgusida empirik tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, nutqiy rivojlanish omillarining ierarxik tuzilmasi aniqlashtirildi. Bu esa nutqni rivojlantirish jarayonini nazariy jihatdan qayta konseptualashtirish imkonini beradi.

Amaliy jihatdan tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutqni rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Xususan, tarbiyachilar uchun nutqiy muhitni boyitish strategiyalarini ishlab chiqishda, ota-onalar bilan hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirishda, nutqiy rivojlanishdagi ehtimoliy kechikishlarni erta aniqlash va profilaktika qilishda hamda ta'lim dasturlarini integrativ yondashuv asosida takomillashtirishda foydalanish mumkin.

## XULOSA

Tadqiqot mavzusi – maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanishning yetakchi omillari – zamonaviy pedagogika va rivojlanish psixologiyasi sohasida dolzarb masala bo'lib, bolalarning ijtimoiy, kognitiv va nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishda samarali pedagogik strategiyalarni aniqlashga xizmat qiladi. Nazariy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, nutqiy rivojlanish ko'p omilli tizim bo'lib, uning samaradorligi biologik, kognitiv-psixologik, ijtimoiy-madaniy va pedagogik omillarning uyg'unlashuviga bog'liq.

Ijtimoiy-madaniy va pedagogik omillar maktabgacha yoshda nutqiy rivojlanishning yetakchi determinantlari sifatida namoyon bo'lib, bolaning muloqot muhiti va tarbiyaviy mashg'ulotlar sifatining ahamiyati yuqori ekanligi aniqlandi. Biologik va kognitiv omillar nutqiy rivojlanishning poydevori hamda ichki mexanizmini ta'minlaydi, ammo ularning ta'siri ijtimoiy va pedagogik sharoitlar bilan uyg'unlashganda maksimal natija beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari (2018-yil 3-iyul, ro'yxat №3032). – Toshkent, 2022. – 64 b. <https://lex.uz/docs/-3805404>
2. Jalolova S. A. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar // Pedagogik ta'lim. – 2021. – № 4. – B. 45-49.
3. Vygotskiy L. S. Myshleniye i rech. – Moskva: Pedagogika, 1996. – 352 b.
4. Leontyev A. A. Psixologiya rechi i rechevogo obshcheniya. – Moskva: Prosveshcheniye, 2001. – 288 b.
5. Rubinshteyn S. L. Osnovy obshchey psixologii. – Sankt-Peterburg: Piter, 2004. – 720 b.
6. Elkonin D. B. Psixologiya razvitiya v detskom vozraste. – Moskva: Akademiya, 2002. – 384 b.
7. Zaporozhets A. V. Problemy razvitiya psixiki rebyonka. – Moskva: Pedagogika, 1998. – 312 b.
8. Qodirova F. R. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 256 b.
9. To'xtaxojayeva M. X. Maktabgacha ta'lim nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 240 b.
10. Yo'ldosheva D. M. Bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya, 2019. – 192 b.
11. Karimova N. R. Bolalar nutqini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati // Ta'lim va tarbiya. – 2020. – № 2. – B. 62-66.
12. <https://webofjournals.com/index.php/1/article/view/5077/5113>
13. <https://maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz/index.php/jurnal/issue/download/3/6>
14. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=IGXmtGAAAAAJ&citation\\_for\\_view=IGXmtGAAAAAJ:2osOgNQ5qMEC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=IGXmtGAAAAAJ&citation_for_view=IGXmtGAAAAAJ:2osOgNQ5qMEC)



- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari





# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №3(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.